

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI HAQIDA

*Abdurahmanova Shahrizoda Ulug'bek qizi
TDYU huzuridagi M.S Vosiqova nomidagi
akademik litsey 1.1 guruh o'quvchisi*

Annotatsiya: Inson Huquqlari Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, inson g'ururi, ozodligi va tengligini ta'kidlaydigan muhim hujjat bo'lib, har bir insonning asosiy huquqlarini belgilaydi. Ushbu deklaratsiya, inson huquqlarini himoya qilish va targ'ib qilishda global standartlarni belgilab beradi.

Kalit so'zlar: Birlashgam Millatlar Tashkiloti (BMT), Franklin Ruzvelt, Eleanor Roosevelt, 217 A (III) raqamli rezolyutsiyasi.

Ikkinci Jahon Urushi tugashi bilanoq, ko'p vaqt o'tmay, **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** 1945-yil 24-oktabrda tashkil etildi, chunki bu qonli urushlardan necha-necha insonlar halok bo'lindi, qanchasi mayib-majruh bo'lib, bu daxshatdan o'ziga kela olmay umrbod hasta bo'lib qoldi, insonlarning huquq va manfaatlari poymol etildi, hatto urushda g'olib kelgan mamlakatlarning iqtisodiyoti, madaniyatiga keltirgan foydadan zarari ko'p bo'ldi. Shunday jahon urushlari yana avj olib ketishini oldini olish uchun BMT o'z oldiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash va davlatlararo do'stona va tinchlikka asoslangan aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ydi. Shuningdek, 1941 yilda AQSh prezidenti Franklin Ruzvelt «Mamlakatdagi holat bo'yicha murojaat»ida 4ta muhim erkinlik: **so'z erkinligi, vijdon erkinligi, ehtiyoj erkinlik va qo'rquvdan erkinlikni** qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Ayni shu narsa, tinchlik o'rnatish va urush tugashiga imkon beradigan inson huquqlari rivojiga yangi turki berdi. Hamda, Dunyo afkor ommasiga natsistlar Germaniyasining konslagerlarda sodir etgan jinoyatlari ma'lum bo'lganida, BMT Nizomi inson huquqlarini kerakli darajada izohlab bera olmasligi, himoya qila olmasligi ayon bo'lib qoldi. Shunga binoan Inson shaxsiyati huquqlarini birma-bir sanab beradigan umumiylar shartnomasi zarurati paydo bo'ldi. Bularni e'tiborga olgan holda, BMT avvalo insonlar o'rtasidagi tinchlikni, hamdo'stlikni ta'minlashiga zarurat tug'ildi. Barcha insonlarning kelib chiqishi, dini, e'tiqodi, irqi, millati, jinsi va rangidan qat'iy nazar teng munosabatda bo'linishini qonuniy ta'minlash uchun birinchi marotaba Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi loyiha dasturini ishlab chiqish boshlandi. Bu hujjat loyihasi ilk bor 1946-yil BMT Bosh Assemblyasining birinchi sessiyasida ko'rib chiqildi va uni "Xalqaro huquqlar to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlashni ko'rib chiqish uchun Inson Huquqlari Komissiyasiga havola qilish" maqsadida Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga yubordi. Ushbu Komissiya tomonidan loyiha

ma'qullangach, geografik taqsimotni hisobga olgan holda, 18 ta a'zodan iborat bo'lган Inson Huquqlari Komissiyasi tashkil etildi. Komissiyaga AQSh prezidenti Franklin D. Rooseveltning rafiqasi Eleanor Roosevelt rahbarlik qildi. Deklaratsiyaning birinchi loyihasi 1948 yil sentyabrda taklif qilindi va yakuniy tayyorlashda 50 dan ortiq a'zo davlatlar ishtirok etdi. Ushbu loyiha ancha muhokamalar, kelishmovchiliklarga sabab bo'lган bo'lsada, 1948 yil 10 dekabrda Parijda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) raqamli rezolyutsiyasi bilan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi. Shunday qilib, **Deklaratsiya 30 moddadan iborat bo'lib, uning 1-2-moddalari poydevor vazifasini bajarib, inson g'ururi, ozodligi, tengligi va birodarligini qayd etgan. Muqaddimaning 7-xatboshisi Deklaratsiya qabul qilinishidan ko'zlangan maqsadni va sabablarini e'lon qiladi.** Hujjatning asosiy matni, ta'bir joiz bo'lsa, uning 4ta ustunini tashkil etadi. **3-11-moddalardan iborat birinchi ustuni shaxsnинг yashash hamda qullikning taqiqlanishiga o'xhash huquqlarini izohlaydi.** 12-17-moddalardan iborat ikkinchi ustun shaxsnинг fuqarolik va siyosiy jamiyatdagi huquqlarini e'tirof etadi. Uchinchi ustun (**18-21-moddalar**) ma'naviy, jamoatchilik va siyosiy erkinliklar, xususan, diniy erkinlik va uyushmalarga a'zolik erkinligi kabilarni o'z ichiga oldi. To'rtinchchi ustun esa, (**22-27-modda**) ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni belgilab beradi. Deklaratsiya Inson huquqlarining asosiy tamoyillarini birinchi marotaba global miqyosda himoya qilinishini qonun bilan mustahkamlab qo'ydi. 1950 yili BMT Deklaratsiya qabul qilingani munosabati bilan 10-dekabrni Inson huquqlari nishonlanadigan kun sifatida belgiladi. Uni turli insonlar, jamiyatlar va diniy uyushmalar, parlamentlar, hukumatlar va albatta BMT ham nishonlaydi. Ma'lumot uchun aytib o'tish kerakki, ushbu hujjat 500 dan ortiq tillarga tarjima qilinib, 70 dan ortiq Inson huquqlarini targ'ib qilish to'g'risidagi shartnomalarga ilhom berib, ularni dunyo bo'ylab qo'llash uchun turtki bo'ldi. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasini **O'zbekiston Respublikasi** mustaqillikka erishganidan keyin 1992-yil 2-sentabrda qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo'ldi. Bu ndan ko'rinish turibdiki, Inson huquqlarining ta'minlanishi tinchlikning eng muhim omilidir. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida ham o'z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. <https://isrs.uz/oz/smti-ekspertlari-sharhlari/10-dekabr-xalqaro-inson-huquqlari-kuni>
2. <https://kun.uz/news/2018/11/20/tarihga-kajtib-inson-ukuklari-umumzaon-deklaraciysi-kandaj-kabul-kilingan->

[edi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F11%2F20%2Ftarihga-kajtib-inson-ukuklari-umumzaon-deklaraciysi-kandaj-kabul-kilingan-edi](#)

